

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDAGI KREATIV QOBILIYATLARNI ERTAK
TERAPIYASI ORQALI RIVOJLANTIRISH****Ortiqova Nilufar Erkin qizi***Jizzax davlat pedagogika universiteti talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilardagi kreativ qobiliyatlarni ertak terapiyasi orqali o'stirish haqida so'z yuritiladi. Shu bilan birgalikda o'quvchilarda yangilik yaratishni ertaklar tasavvurida shakllantira olishi, ertak terapiyasidan foydalanish haqida fikr boradi.*

Kalit so'zlar: *Ertak, kreativlik, terapiya, xalq o'g'zaki ijodi, tarbiya, qahramon, ezgulik, og'zaki hikoya, yovuzlik, syujet, obraz, mutolaa, multfilm.*

Ertak — xalq og'zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri; to'qima va uydirmaga asoslangan sehri sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar. Asosan, nasr shaklida yaratilgan. Ertak Surxondaryo, Samarqand, Farg'ona o'zbeklari orasida matal, Buxoro atrofida tuman va qishloqlarda ushuk, Xorazmda varsaqi, Toshkent shahri va uning atrofida cho'pchak deb ataladi. Ertak hayot haqiqatining hayoliy va hayotiy uydirmalar asosida tasvirlanganligi, tilsim va sehr vositalariga asoslanishi, voqea va harakatlarning ajoyib g'aroyib holatlarda kechishi, qahramonlarning g'ayri tabiiy jasorati bilan folklorning boshqa janrlaridan farq qiladi.

Boshlang'ich ta'limdagi yosh – bu ertak yoshi. Bu yoshda bola ajoyib, g'ayrioddiy, hamma narsaga kuchli intilishni namoyon qiladi. Ertak har bir bolajonlarning to'liq rivojlanishining eng maqbul vositalaridan biridir. Ko'p yillar davomida shunday bo'lgan, va shunday bo'ladi ham. Siz ertakning bolalar hayotidagi rolini e'tiborsiz qoldirmasligingiz kerak - to'g'ri tanlangan ertak bolaning hissiy holatiga ijobiy ta'sir qiladi, uning xatti-harakatlarini to'g'rilaydi va yaxshilaydi, shuningdek, bolaning o'zidagi qobiliyatlarini rivojlantiradi va o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Ertak bolalar hayotida juda muhim o'rin tutadi: uning yordami bilan bolalar juda erta gapira boshlaydilar va o'z fikrlarini to'g'ri ifodalashni o'rganadilar, shuningdek, u muloqot va xatti-harakatlar asoslarini shakllantirishda eng yaxshi yordamchidir. Ertaklar inson hayoti davomida juda kerakli bo'lgan janr hisoblanadi. Yoshligimizdan boshlab biz ertaklarni buvijonlarimizdan eshitib katta bo'lganmiz. O'sha eshitgan ertaklardan ta'sirlanib kreativ g'oyalar yangiliklar yarata olamiz. Bu biz uchun katta g'oyalar manbai bo'la oladi desam adashmagan bo'laman. Boshlang'ich sinf darslarida ertakni rollarga bo'lib tasvirlash kerak. Rollarga bo'lib, ko'rgazmali qilib tushuntirib berilgan ertaklar bolaning bir umr yodida qoladi. Bolalar eshitgan narsasidan ko'ra ko'rgan narsasiga ishonadi. Va ko'rgan narsasini xayolotida tasavvur qila oladi. Chunki uning ongida o'sha ertak gavdalanadi. Ertakni xayolida gavdalanitirib, unga boshqa qahramonlar qo'shib, uni yangidan qayta hikoya qilib bera

oladi. Ertak bolalar hayotida juda muhim o‘rin tutadi: uning yordami bilan bolalar juda erta gapira boshlaydilar va o‘z fikrlarini to‘g‘ri ifodalashni o‘rganadilar, shuningdek, u muloqot va xatti-harakatlar asoslarini shakllantirishda eng yaxshi yordamchidir

Boshlang‘ich sinflarda ertaklarni o‘qitish o‘qituvchilar oldiga quyidagicha talablarni qo‘yadi:

- 1) ertak matnlari asosida o‘quvchilarda yaxshi o‘qish sifatlarini hosil qilish;
- 2) o‘quvchilarning matn mazmunini to‘la tushunishlariga erishish;
- 3) ertakdagi obrazlarni bir-biridan farqlay bilishga o‘rgatish;
- 4) o‘quvchilarni voqea-hodisalarni, hayotiy faktlarni, fantaziyani to‘g‘ri tushunishga o‘rgatish;
- 5) o‘quvchilarning estetik zavq olishlariga erishish;
- 6) ertaklardagi qiyin so‘zlarning to‘g‘ri tushunilishini ta‘minlash;
- 7) o‘z axloqiy sifatlarini obrazlarning axloqiy sifatleri bilan qiyoslab ko‘rish orqali ma‘lum xulosa chiqarishlariga erishish;
- 8) o‘quvchilarning ertaklarni to‘liq holda ikkinchi shaxsga aytib berishlariga erishish.

Boshlang‘ich sinflarda ertaklarni o‘rganishda quyidagi metodlardan foydalanish mumkin.

1. O‘quvchilarda ertaklarga qiziqish hissini uyg‘otish maqsadida, ularning leksik va sintaktik xususiyatlarini saqlagan holda, og‘zaki hikoya qilib beriladi va shunday hikoya qilib so‘zlash talab etiladi. Chunki ertak mazmunining o‘quvchilarga to‘la yetib borishi uchun o‘qituvchi yoki o‘quvchi uni mustaqil badiiy hikoya qilib berishi kerak.

2. Ertak hikoya qilib berilgandan so‘ng, mustaqil o‘qitiladi, o‘qish jarayonida ayrim (tushunilishi qiyin) so‘zlarga izoh beriladi.

3. Ertakning g‘oyasi savol-javob yo‘li bilan ochiladi.

4. Ertak syujeti asosida rasmlar chiziladi.

5. Ertak qahramonlarining sifatleri hayotdagi ayrim kishilar xarakterlariga, sifatlariga solishtirib o‘quvchilar xulosalarini mustaqil aytishlari o‘quvchilardan talab etiladi.

6. Ertak mazmuni asosida o‘quvchi aqliy faoliyatining rivojlantirilishiga doir mustaqil ish o‘tkaziladi.

Bolalar eshitgan ertaklarining o‘zini o‘xshatadi. Masalan “Zumrad va Qimmat” ertagini olaylik. Qizlar Zumradni yaxshi odobli, mehnatkash, chiroyli, shirinso‘z deb tariflaydi. Qimmat bo‘lsa Zumradning aksi bo‘ladi. Bolalarning xayolida Qimmat yaxshi qiz emas. U dangasa, ishyoqmas, tekinxo‘r deb o‘ylaydi. Zumradga o‘xshashni Qimmatga o‘xshamaslikni aytib o‘tadi. O‘zining Zumradini, Qimmatni ong ostida gavdalantiradi. Bu esa bolaning fikrlash doirasini kengayishiga juda katta samara beradi. Bugungi davrda yosh avlodni axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga o‘ta berilib ketishdan asrab, mutolaaga o‘rgatish o‘rniga, o‘zimiz bunga sharoit yaratib berayotganimiz oydek ravshan bo‘lib, yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Xalqimizda bir gap

bor. "Bolani besh yoshgacha yozilmagan qog'oz" - deydilar, ya'ni nimani yoqsang, kelajakda shuni o'qiysan. Tili endigina chiqqan farzandingiz savollar berib, odamni esangkiratib qo'yadi. Aynan shu davr juda ham muhim, negaki, bola bu davrda ko'zi bilan ko'rib turib uni nima ekanligiga aqli yetmaydi. Siz farzandingizni aqli yetmagan narsa, buyum, jonzotlarni erinmasdan tushuntirsangiz maqsadga muvofiqdir. Afsuski, ayrim yosh onalar bu payt farzandini noo'rin jerkib tashlaydi. Albatta, bu noto'g'ri, chunki bola bunday vaziyatda onasidan so'rashga qo'rqib qoladi. Farzandingizni tili chiqib endigina qadam tashlayotgan kichkintoyingiz juda g'ayratli va serharakat bo'ladi. Ertak bolaga hayotni anglash, oqni qoradan farqlash hamda ezgulikni yovuzlikdan ustin qo'yishga undaydi. Unda insonparvarlik, vatanparvarlik, do'stga sadoqat, yorga vafodorlik, shu yo'lda qahramonlik, jasorat ko'rsatish kabi fazilatlar ulug'lanadi, zulm va zo'ravonlik qoralanadi.

Jumladan, hayvonlar haqidagi "Tulkining taqsimoti" ertagida ayyorlik va tilyog'lamalik tulki obrazi orqali ifodalangan. "Uch og'a-ini botirlar" ertagi ota nasihati bilan boshlanadi. Botirlar obrazida axloq va odobning yuksak namunasi odamiylik, donishmandlik, jasurlik kabi sifatlar namoyon bo'ladi. Tarbiyachi tomonidan ertak o'qib bo'lingach, bolalarni umumiy xulosa chiqarishga undash lozim. "Agar sen uning o'rnida bo'lganingda nima qilgan bo'lar eding?", kabi savollar berib, erkin muloqotga chaqirish ularning faolligini oshirishga yordam beradi. Har bir ertakning o'z g'oyasi bor. "Sehrli sholg'om" ertagi bolalarni fikrlashga, voqealarni ketma-ket aytishga undaydi.

Ertaklarni o'quvchiga kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishda ertak terapiyasi usulidan foydalanish ma'qul bo'ladi. Ertak terapiyasi – bu ta'lim, xulq-atvorni to'g'irlash, psixologik og'ishlarning oldini olish, psixologik va psixoterapevtik yordam va boshqa sohalardagi muammolarni hal qilish uchun ertakdan foydalanadigan psixologiya usuli.

Ertak terapiya konsepsiyasining manbalari L.S.Vigotskiyning asarlarida, D.B.Elkoninning tadqiqot va tajribalarida, B.Bettelxaym hikoyalarida, Gardner asarlarida, E.Fromma va E.Bernning g'oyalari G.Jung va M.L.fon Franzning masallari va hikoyalarida ertak terapiya aks etgan. Pezeshkyan, bolalar submulturasini o'rganish M.Osorinaning asarlarida, Proppa g'oyalarida E.Romanova psixoterapevtik ertaklar va g'oyalarida shuningdek, A.Gnezdilova va A.Zaxarova tajribalarida aks etgan. Ertak terapiya usulidan foydalangan holda bolalar psixologlari va bolalar bog'chalari tarbiyachilari uchun maxsus yozilgan birinchi kitob Natalya Yuriyevna Rittinaning 2016-yilda nashr etilgan "Bizning o'rmonimizda" ertaklari to'plami edi.

O.I.Kayashevaning tadqiqotlariga ko'ra, ertak terapiyani shakllantirishda hikoyalarni o'z-o'zidan qo'shish va yetkazish bosqichini, metaforik materialni ilmiy tahlil qilish bosqichini va ertakni psixologik va pedagogik ish texnikasi sifatida ishlatish bosqichini ajratib ko'rsatish mumkin. Ertak terapiya tarixida usul sifatida to'rtta asosiy bosqichga ajratiladi:

- xalq og‘zaki ijodi bosqichi;
- ertaklar va afsonalarni to‘plash va tadqiq qilish bosqichi;
- ertak terapiyasini psixotexnika sifatida qo‘llash bosqichi;
- kompleks ertak terapiyasi bosqichi.

I.V.Vachkov ertak bilan ishlashning 24 usuli va texnikasini aniqladi. Mana ulardan ba’zilari:

- Ertaklarni o‘qish va keyinchalik muhokama qilish.
- Ertak aytib berish.
- Ularning munosabatlarini shakllantirish bilan qahramonlarning xususiyatlari tahrirlash.
 - Ertakga boshqa ertak qahramonini kiritish.
 - Ertak uchun rasmlarni chizish.
 - Ertakni teskari aytib berish .
 - Qahramonlar ustidan sud jarayoni.
 - Mavjud modelga muvofiq ertak yaratish.

Ertak terapiya eshitish qobiliyati cheklangan bolalarni reabilitatsiya qilishda, xususan, koxlear Implantatsiyadan keyin logoritmikani boshlashda ishlatiladi. Ushbu usulga bo‘lgan talabga qaramay, uni o‘tkir psixotik holatlarda, konvulsiv sindromning rivojlanish xavfi yuqori, miyaning sezilarli darajada shikastlanishi, somatik patologiyaning dekompensatsiyasida qo‘llash mumkin emas.

Hozirgi kunda yurtimizdagi barcha davlat va nodavlat Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida, maktablarda alohida ertakchi ishchi o‘rnini yaratish lozim deb o‘ylayman. Ertakchining vazifasi bolalarni o‘zbek xalq ertaklari va jahon xalq ertaklarini barchasi bilan yaqindan tanishtirish, uning ma’nosini, mazmunini tushuntirish, dunyoga teran nigoh bilan qarashni, orzu qilishni, fikrini ravon va ifodali tarzda bayon qilishni o‘rgatishdan iborat bo‘ladi. Ertakchining tarbiyachi, muallimdan farqi, tarbiyachi-muallim ko‘p mashg‘ulotlardan dars o‘tadi, bolalar o‘z muallim-tarbiyachisini har kuni kun davomida ko‘rgani sababli bolalarda zerikkish paydo bo‘lib, xarxasha qilish boshlanadi, bu esa tarbiyachi-muallimning jismoniy zo‘riqishiga olib keladi, bolalar biror bir narsadan tez zerikkishini bilamiz, shu sabab ertakchi bolalar bilan bir kunda bir marotaba bitta, yoki ikkita ertakni o‘qib, uning mohiyatini tushuntirib bersa bolalarda yanada qiziqish ortadi, dunyoqarashi kengayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Choriyeva S. Ilm-fan va ta’limning rivojlanish istiqbollari, Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni pedagogik qo‘llab-quvvatlashning pedagogik-psixologik jihatlari, 27-konferensiya to‘plami, 2022-yil 24-iyun, 105-107-bet.

2.Qurbonova S. Ilmiy tadqiqotlar va jamiyat muammolari,



Maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini rivojlanishidaertaklarning o'zni 4-konferensiya to'plami, 2023-yil, 7-oktabr, 37-40-bet

3.Abdalimova S, "ACTUAL PROBLEMS OF SCIENCE AND EDUCATION IN THE FACE OF MODERN CHALLENGES", Eshqobilova Ozoda,Ertaklar yordamida bolalar nutqini shakllantirish 14-konferensiya 2024-yil, 17-may, 10-116-bet.

4. Safarov O. Xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Musiqa, 2010.

5. Jumaboyev S. Bolalar adabiyoti (Darslik majmua). –Toshkent: O'qituvchi, 2008.

6.https://uz.wikipedia.org/wiki/Ertak_terapiya